



## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING XUSUSIY KO'RSATKICHLARI

**Abdivoxidov Mamurjon**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0002-8398-166X

[abdivoxidovmamurjon@gmail.com](mailto:abdivoxidovmamurjon@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasining xususiy ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini baholashda hududiy yondashuv uslubi ham bu boradagi samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga egaligi va hududlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida ko'rsatilgan xizmatlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi bo'yicha baholash usulini takomillashtirish bo'yicha taklif hamda tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish, iqtisodiy faoliyat, xizmatlar, axborot iqtisodiyoti, internet iqtisodiyoti, elektron iqtisodiyot, veb-iqtisodiyot, elektron tijorat.

## ЧАСТНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ СФЕРЫ УСЛУГ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

**Абдивохидов Мамуржон**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В данной статье особое внимание уделено частным показателям сферы услуг в условиях цифровой экономики. В условиях цифровизации экономики нашей страны метод регионального подхода в оценке развития сферы услуг также важен для выработки эффективных управленческих решений в этой связи, совершенствования метода оценки предоставляемых услуг. В регионах в условиях цифровой экономики по объему на душу населения даны предложения и рекомендации.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, предоставление услуг, экономическая деятельность, услуги, информационная экономика, интернет-экономика, электронная экономика, веб-экономика, электронная коммерция.

## PRIVATE INDICATORS OF THE SERVICES SECTOR IN THE DIGITAL ECONOMY

**Abdivokhidov Mamurjon**

Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** This article pays special attention to private indicators of the service sector in the context of the digital economy. In the context of the digitalization of the economy of our country, the method of regional approach in assessing the development of the service sector is also important for developing effective management decisions in this regard, improving the method of assessing the services provided. in the regions in the context of the digital economy in terms of volume per capita, proposals and recommendations are given.

**Key words:** digital economy, provision of services, economic activity, services, information economy, internet economy, electronic economy, web economy, electronic commerce.

## **Kirish.**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ham xizmat ko'rsatish sohasining mohiyati, uning milliy iqtisodiyotdagi xususan, hududlarni rivojlantirishdagi ahamiyati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir 2020-yil 5-oktyabrda "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmonida<sup>1</sup> respublikamizda raqamlashtirishning ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish bilan birga jahonda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy richaglarni tadqiq etish va joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## **Adabiyotlar sharhi.**

Rossiyalik olim Dalning (1882) lug'atida xizmat tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: Xizmat ko'rsatish, yordam, imtiyoz, ko'mak, ko'nglini topmoq, istagini bajo keltirmoq. Biroq ushbu lug'atlarda keltirilgan talqinlarda "xizmat" tushunchasining mohiyati to'liq ifodalanmagan.

Rossiyalik olim Ojegov (1991) tahriri ostida chop etilgan rus tili gramatik lug'atida "xizmatlar" bu "naf, foyda keltiradigan harakat, boshqalarga yordam deb hisoblanadi" degan fikr ilgari surilgan.

Amerikalik iqtisodchi Kotler (1992) o'zining "Marketing asoslari" nomli kitobida "xizmatlar – bu obyektни sotish jarayonida o'z manfaatini qondirish, muayyan bir naf olish uchun qilingan harakat" degan holda, o'zining fikrini davom ettirib, "ishlab chiqarishda xizmatlar moddiy ko'rinishdagi tovarlar bilan bog'liq bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin", deb hisoblagan.

Shiray (2003): "Xizmat – alohida olingan inson yoki bir butun jamiyatni qandaydir ehtiyojini qondiruvchi, natijalari samarali foydada gavdalanuvchi, maqsadli mehnatning faoliyatidir".

Mashhur marketolog-nazariyotchi T.Levitt: "Har qanday soha, xoh u katta bo'lsin, xoh kichik bo'lsin, o'zida xizmatlarni namoyon etadi", – deydi. T.Levittning fikrini davom ettirgan holda Kotler (2006) uni quyidagicha izohlaydi: "Aslida tovar xaridori hisoblanmish mijoz unga taklif etilgan tovar ko'rinishidagi xizmatni xarid etadi... Pirovard natijada hammasi xizmat ko'rsatishga borib taqaladi", – deb izoh berdi. Nikolaychukning (2005) ta'kidlashicha: "Hamma sohada xizmatlar yaratiladi, ammo hamma sohada ham moddiy tovarlar yaratilmaydi (bank, transport, konsalting va boshqalar)".

## **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqot ishida bilish nazariyasining mantiqiy yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy va omilli tahlil, zamon va makon, taqqoslash, monografik kuzatish kabi usullardan foydalanildi.

## **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u axborot iqtisodiyoti, internet iqtisodiyoti, elektron iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- Axborot va aloqa korxonalarini soni;
- Ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi;
- Xizmat turlari bo'yicha internetga kirish imkoniyatiga ega uy xo'jaliklari;
- AKT sektorida ishlovchi xodimlar soni;

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

- Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha xodimlar ish haqi;
- Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi;

- Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi;

- Dasturiy ta'minotga qilingan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi.

Shulardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining asosiy ko'rsatkichlari tizimini qo'yidagilar tashkil etadi:

- axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni;
- dasturiy ta'minotga qilingan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi;
- ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi;
- noshirlik xizmatlari hajmi;
- televideniya va dasturlari kino-videofilmlar ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar hajmi;
- teleradioeshittirish va dasturlar tuzish bo'yicha xizmatlar hajmi;
- telekommunikatsiya xizmatlari hajmi;
- kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar hajmi;

- axborot sohasidagi xizmatlar hajmi;
- internet tarmog'iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni;
- internet tarmog'iga keng polosali ulanish bo'yicha abonentlar soni;
- ma'lumot uzatuvchi tarmog'iga ulangan, Internetni qo'shgan holda abonentlar soni;
- internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, (yuridik va jismoniy shaxslar);
- internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni, 100 ta aholiga nisbatan;
- umumfoydalanadigan telefon tarmog'i telefon apparatlari soni, taksofonlarsiz (hududlar kesimida);

- aholining telefon apparatlari bilan ta'minlanganlik darajasi;
- korxonalar va tashkilotlarda lokal tarmoqqa ulangan kompyuterlar soni;
- korxonalar va tashkilotlarda Internetga ulangan kompyuterlar soni;
- internetga ulangan korxonalar va tashkilotlar ulushi.

Agar raqamli iqtisodiyot sharoitidan kelib chiqib, raqamli xizmat tushunchasiga ta'rif bersak, **raqamli xizmat – bu xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish, xizmatlarni sotish yoki sotib olish jarayonlarida vaqt bilan bog'liq tranzaksiya harakatlarini kamaytirishga qaratilgan raqamli texnologiyalar asosida ko'rsatiladigan xizmatlardir.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi;

- axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YAIMdagi ulushi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini baholashda hududiy yondashuv uslubi ham bu boradagi samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib, hududlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida ko'rsatilgan xizmatlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi bo'yicha baholash usulini taklif etish mumkin:

- hisobot davrida hududning doimiy aholisi o'rtacha yillik soni (ming kishi);
- hisobot davrida hududda elektron tijorat sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd. so'm).

Hududlarning raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishini tavsiflovchi xususiy ko'rsatkichlari rasmiy statistika ma'lumotlari asosida aniqlanadi. Bunda,

aholi jon boshiga to'g'ri keladigan elektron tijorat xizmatlari hajmini quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$AJEXH = KEXH/HAS; \quad (1)$$

bu yerda,

AJEXH — aholi jon boshiga to'g'ri keladigan elektron tijorat sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, (mlrd. so'm);

KEXH — hisobot davrida ko'rsatilgan elektron tijorat sohalarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mln. so'm);

HAS — hisobot davrida hududdagi doimiy aholi o'rtacha yillik soni (ming kishi).

Ushbu hisob-kitoblar asosida hududlar rivojlanishida elektron tijoratning rolini aniqlash mumkin.

So'nggi yillarda respublikamizda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda: 2022 yilda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat ishlab chiqarish hajmida o'sishi 2018 yilga nisbatan 62,1 %, qurilishda 149,9%, bandlikda 0,92%, eksportda 49,4%, importda 38,8%, savdoda 120,1%, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 81,0%, xizmatlar 105,0%, yuk tashish -3,9%, yuk aylanmasi 23,4%, yo'lovchi tashish 6,9%, yo'lovchi aylanmasida esa 7,4%ga o'sgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2018-2022 y.y.da o'sish, %da
Sanoat (mlrd.so'm)	87962,0	83344,2	103020,8	121719,2	142611,7	62,1
Qurilish (mlrd.so'm)	37451,7	53960,9	63866,6	77762,0	93620,8	149,9
Bandlik (ming kishi)	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7	10222,9	0,92
Eksport (mln.AQSH.dol)	3810,8	4714,8	3100,9	3711,2	5696,2	49,4
Import (mln.AQSH.dol)	10916,2	14972,2	10943,3	12389,0	15154,1	38,8
Savdo (mlrd.so'm)	114896,4	138920,7	164106,1	204787,4	253573,4	120,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	191759,2	219466,9	253238,2	307280,2	347222,0	81,0
Xizmatlar (mlrd.so'm)	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	173157,7	105,0
Yuk tashish (mln.tonna)	611,7	641,0	638,9	678,9	588,1	-3,9
Yuk aylanmasi (mln.tonna-km)	11657,7	12152,3	12304,6	13108,1	14394,9	23,4
Yo'lovchi tashish (mln.yo'lovchi)	5242,6	5345,0	4904,8	5237,6	5606,0	6,9
Yo'lovchi aylanmasi (mln.pass.km)	115335,2	117412,7	107766,7	114681,5	123882,5	7,4

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlikning muhim jihati shundaki, ular bu sohadagi talabning o'zgarishiga hammadan tez moslashadi. Shu bilan birga, ular faoliyatini tashkil etish kam resurs talab etadi va inqirozga yuz tutganda katta iqtisodiy zararga uchramaydi. Buning natijasida iqtisodiyotning hududiy tuzilmasi barqarorligini ta'minlashga ko'maklashadi. O'zbekistonda 2018-2022 yillardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari shuni ko'rsatmoqdaki, umum hisobda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori o'sish suratlari qurilish (149,9%), sanoat (62,1%) tendensiyasi kuzatilgan. Biroq, bunday o'sishda xizmat ko'rsatish sohasining roli va ulushi hali yetarlicha ahamiyatga ega emas. Ayniqsa, yuk tashish xizmatlari bo'yicha (-3,9 %), yo'lovchi tashish (6,9 %), yuk aylanmasi (23,4%), yo'lovchi aylanmasida (7,4 %)ga o'sganligini kuzatish

mumkin. Bunday o'sish suratlari respublikamizda raqamli iqtisodiy munosabatlarning jadallashuvi sharoitida hali yetarli emas. Bunday xizmat turlarini ko'rsatish bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini oshirish eng avvalo xizmat ko'rsatish jarayonlarining raqamli texnologiyalar asosida tezkorligini oshirish choralarini ko'rish zaruratini belgilaydi bu esa, vaqtni tejash imkonini berib mehnat unumdorligining o'sishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi raqamli texnologiyalar, internet, mobil qurilmalar, raqamli innovatsiyalar orqali biznes jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlariga kuchli ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiyotni tavsiflaydi. Uning asosiy belgilari sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- mijozlar bilan o'zaro qayta aloqa tizimi mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

Ushbu raqamli iqtisodiyotning namoyon bo'lish belgilari iqtisodiy munosabatlar tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Shulardan kelib chiqib, mamlakatimizda 2020 yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb e'lon qilindi. Hozirgi kunda barcha sohalarda ochiq-oshkoralik va samaradorlikni ta'minlash maqsadida "Elektron hukumat" tizimi jadallik bilan joriy etilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad esa, interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish orqali aholining vaqti va xarajatlari tejalishiga erishishdir.

**Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratligi aniqlandi:**

1. Xizmatlarni ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish, samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanadi.

2. Elektron tijorat va onlayn bozorlar kompaniyalarga tovar va xizmatlarni onlayn sotish imkonini beradi va shu orqali mijozlar geografiasini kengaytiradi.

3. Katta hajmdagi ma'lumotlar ko'proq asosli qarorlar qabul qilish va iste'molchilarning didini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

4. Innovatsiyalar va startaplar: Raqamli iqtisodiyot yangi g'oyalar va biznes modellarni olib keladigan innovatsion kompaniyalar va startaplarning rivojlanishiga yordam beradi.

5. Raqamli to'lovlar: Elektron pullar, mobil to'lovlar va kriptovalyutalar tobora ommalashib borayotgan to'lov usullariga aylanmoqda.

6. Internet of Things (IoT): Ma'lumotlarni yig'uvchi va almashuvchi ulangan qurilmalar avtomatlashtirish va hayot sifatini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

7. Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish: Ushbu texnologiyalar turli sohalarda tahlil, prognozlash va qaror qabul qilishni yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Raqamli iqtisodiyot biznes, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi va hayotning boshqa sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu axborot oqimini tezlashtiradi, bilim va resurslarga kirishni oshiradi va yangi ish o'rinlarini yaratishi mumkin, lekin jamiyat va hukumatlar uchun ma'lumotlar xavfsizligi, maxfiylik va texnologiyalardan axloqiy foydalanish bo'yicha savollar tug'diradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo'nalishlar ochib beradi. "Raqamli texnologiyalar" tomon burilishga butunjahon internet tarmog'i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo'ladi. Buning natijasida quyidagi qulayliklarga erishiladi:

1. To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (vaqt, transport xarajatlari va boshqa resurslar tejaladi).

2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.
3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari kattalashadi.
4. Iste'molchi fikrini tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Xizmat ko'rsatish sohasi hududning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish holatini aks ettiruvchi milliy hisoblar tizimining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu sohaning rivojlanish darajasini baholashda innovatsion va raqamli iqtisodiyotning ta'sirini ham hisobga olib yondashish mumkin. Shu bilan birga xizmat ko'rsatish sohasi xususiy sektorda iqtisodiy faoliyat bilan band bo'lishning ham eng qulay shaklidir. Shuning uchun mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasining institutsional asoslarini isloh qilishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida mamlakatimizda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va maqsadlari belgilangan (Farmon, 2022). Jumladan:

- hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish;

- shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlarini rivojlantirish;

- respublika hududlarida savdo va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish;

- servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravarga qisqartirish.

Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

#### **Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:**

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 2022 yil 28 yanvar, PF – 60-sonli Farmoni.*

Даль В.И. (1882) *Толковый словарь великорусского языка. 2-е изд. М., Т. IV. С.512.*

Котлер Ф. (1992) *Основы маркетинга. М. Прогресс. – 734 с.*

Котлер Ф. (2006) *Маркетинг-менеджмент // Экспресс-курс. 2-е изд. С.301.*

Николайчук В.Е. (2005) *составлено по кн.: Николайчук В.Е. Маркетинг и менеджмент услуг // Деловой сервис. Спб.: Питер, С. 608.*

Ожегов С.И. и др. (1991) *Грамматический словарь русского языка. -М.: Русский язык. - 432стр.*

Ширай В.И. (2003) *Мировая экономика и международные отношения: Учебное пособие. -М.: Дашков И. К. С.226.*